

## CHO‘LPONNING TARJIMA DRAMALARI. “HAMLET” HAQIDA

*Arabboyeva Nasiba Avazbek qizi*

*Andijon davlat universiteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abdullayeva Dildoraxon.*

*Andijon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

*E.pochta: [nasibaarabboyeva02@gmail.com](mailto:nasibaarabboyeva02@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Cho‘lponning dramaturgik faoliyati, tarjimalari, jumladan “Hamlet” dramasi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** dramaturgiya, Cho‘lpon tarjimalari “Hamlet” dramasi, teatr

O‘zbek adabiyotining ma’rifatparvar ijodkorlaridan biri Abdulhamid Cho‘lpon bir vaqtning o‘zida yozuvchi, shoir, dramaturg va tarjimon sifatida faoliyat yuritdi. U jahon adabiyotidagi ma’lum va mashhur asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib olib kirdi. Ayniqsa, u tarjima qilgan **dramalar** alohida ahamiyatga egadir. Cho‘lpon tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan Shekspirning “Hamlet”, Lope de Veganing “Ko‘zi buloq”, “Ko‘za ko‘targan qiz”, Molerning “Hasis”, Gotsining “Malikayi Turondot”, Karlo Goldonining “Ikki boyga bir Malay”, Pushkinning “Boris Godunov” kabi asarlari o‘zbek teatrining yuksakka ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Cho‘lponning o‘zi g‘urur bilan “bizda kundan-kun gullab kelayotgan, har yerda maqtalgan, o‘zini ko‘rsatgan, Shekspir asarlarini qo‘yish darajasiga erishgan teatr bor”, degan edi. Cho‘lpon tarjima qilgan pyesalarda ham inson erki uchun kurash g‘oyasi va yovuzlikni fosh etish harakati birinchi o‘rinda turar edi. Cho‘lpon teatr san’atining chuqur bilimdoni bo‘lganligi uchun ham birinchi o‘zbek professional davlat teatrining direktori bo‘lib ishlagan. U nafaqat yurtimizdagi teatrlarda, Moskvadagi teatrlarda ham o‘zbek teatr san’atining rivoji uchun qattiq mehnat qilgan. 1933-yili O‘zbek davlat drama teatri (Hozirgi O‘zbekiston Milliy drama teatri)ga “akademik drama teatri” maqomi berilishi munosabati bilan teatr

rahbariyati shu maqomga munosib sahna asarlarini yaratish maqsadida jahon dramaturgiyasiga murojaat etadi va U. Shekspirning “Hamlet” tragediyasini o‘zbek tilida sahnalashtirib, tomoshabinlarga taqdim etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Garchand Shekspirning buyuk tragediyasini o‘zbek tilida sahnalashtirib, tomoshabinlarga taqdim etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Garchand Shekspirning buyuk tragediyasini o‘zbek tiliga tarjima qilishni boshqa bir yozuvchi o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa-da, u bu mashaqqatli vazifani bajara olmagan uchun teatr o‘zining “eski qardoni” va sobiq adabiy emakdoshi Cho‘lponga murojaat etib, uni tarjima qilib berishni iltimos qiladi. Cho‘lponning o‘zi bu haqida bunday deydi: “Hamlet”ni menga berishdan ilgari boshqa birovga berishgan ekan. Lekin u istamagan ekan. So‘ngra “Hamlet”ning tarjumasini menga berganlar. Biz bu tarjuma ustida Uyg‘ur bilan birga ishladik”.<sup>1</sup>

Xullas, shu yillarda Moskvada yashayotgan Cho‘lpon “Hamlet”ning rus tiliga qilingan o‘nga yaqin tarjimasi bilan tarjimasi bilan tanishib, shekspirshunos Yevgeniy Lanning maslahati bilan asarning P.Kanshin tomonidan tomonidan rus tiliga qilingan nasriy tarjimasini asos qilib oladi. Ayni paytda, shu tarjimani Ye. Lan yordamida inglizcha asliyat bilan qiyoslab o‘rganadi. Bundan tasqqari, “Hamlet”ning Moskva teatrlari sahnalarida namoyish etilayotgan spektakllarini tomosha qilib, Shekspir qalami bilan yozilgan o‘lmas monologlarning sahnadan qanday jaranglashi lozimligiga alohida e’tibor beradi. Shunday tayyorgarlik ishlaridan keyin 1933-yilning so‘nggi oylarida asar tarjimasini tugatib teatrga topshiradi.

1934-yil 11-fevralda “Hamlet” spektaklining O‘zbek davlat akademik drama teatrida premyerasi bo‘lib o‘tadi. (rejissorlar Mannon Uyg‘ur va Y. Bobojonov).

1934-yili “Hamlet” tarjimasi o‘zbek tilida kitob shaklida nashr etiladi.

“Hamlet” ning o‘zbek tilidagi kitob nashrida V pardaning 1-ko‘rinishidan keyingi 2-5-ko‘rinishlar tushirib qoldirilgan. Ma’lumki, mazkur asar Shekspir tomonidan turli parda va ko‘rinishlarga ajratilmagan. Bu hol keyinchalik Shekspir asarlarining

---

<sup>1</sup> Чулпон. Асарлар IV жилд. Академнашр. Тошкент. 2016. 56-б

noshirlari, tarjimonlari va ularni sahnalashtirgan rejissorlar tomonidan amalga oshirilgan. Tahmin qilish mumkinki, Cho‘lpon tarjimasini uchun asos bo‘lgan nashrda yoki “Hamlet”ning Moskva va Boku teatrlarida sahnalashtirilgan nusxasida ham V pardoning 2-5-ko‘rinishlari bo‘lmagan. Ammo bu dramaturgning badiiy konsepsiyasiga shikast yetkazmaydi.<sup>2</sup>

Ammo Cho‘lpon “Hamlet”ning tarjimoni hech qayerda tilga olinmaganidan ranjidi. “Hamlet” Hamza teatrda qo‘yilganidan keyin ham, Moskvada gastrol chog‘ida ham tarjimon haqida hech nima deyilmaydi.

“Hamlet”ning Cho‘lpon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini o‘zbek tarjima san’atining dastlabki buyuk durdonasi sifatida baholanib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Куронов Дилмурод ва б. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Академнашр, 2013.-206
2. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Ўқитувчи нашриёти. Т.:1986.-407
3. Н.Каримов. XX аср ўзбек адабиёти, Ўқитувчи нашриёти. Т.:1999.-544
5. Чўлпон .Асарлар( учинчи жилд) Академнашр. Т.:2016

---

<sup>2</sup> Чўлпон. Асарлар III жилд. Академнашр. Тошкент. 2016.